

## O'RTA QULOQ OTITI

*Axmedova Kamilla Sanjar qizi*  
*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti*  
*davolash ishi fakulteti 6-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'rta quloq otiti (o'rta quloq yallig'lanishi) kasalligining sabablari, belgilari, diagnostikasi va davolash usullari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, kasallikning oldini olish choralari va mumkin bo'lgan asoratlari haqida ma'lumot beriladi. Maqola tibbiyot xodimlari va keng jamoatchilik uchun foydalidir.

**Kalit so'zlar:** o'rta quloq otiti, quloq kasalliklari, yallig'lanish, antibiotik terapiya, eshitish buzilishi.

O'rta quloq otiti – bu o'rta quloq bo'shlig'ining infeksiyon yallig'lanish kasalligi bo'lib, u bolalar va kattalarda keng tarqalgan. Bu kasallik bakteriyalar, viruslar yoki zamburug'larning quloq bo'shlig'iga kirishi natijasida yuzaga keladi va eshitish buzilishi, quloq og'rig'i, isitma kabi simptomlar bilan namoyon bo'ladi.

Otit-quloqning yallig'lanishi. Tashqi quloqning yallig'lanishi otit, o'rta quloqning yallig'lanishi o'rta otit va ichki quloqning yallig'lanishi labirintit deyiladi.

Tashqi otitga tashqi eshituv yo'liga infeksiya kirishi, shuningdek, qashinib yoki hasharot chaqib yaralanishi, kuyish, sovuq urishi yoki barmoq bilan quloq kovlash sabab bo'ladi.

O'rta otiti ko'pincha yosh bolalarda uchrab, birmuncha og'ir kechadi, quloq qattiq og'riydi, harorat ko'tariladi, eshitish ancha pasayadi, miya va uning pardasiga asorat berishi mumkin. O'rta otitiga aksariyat yuqori nafas yo'llarining yallig'lanishi bilan kechadigan infeksiyon kasalliklar: gripp, o'tkir respirator kasalliklar, qizamiq, skarlatina va boshqa sabab bo'ladi. O'rta otitida vrach tavsiyasi bo'yicha kompress qilinadi; u og'riqni pasaytiradi va nog'ora bo'shlig'idagi yallig'lanish so'rilib ketishiga imkon beradi. O'rta quloq yallig'lanishining oldini olish uchun organizmni chiniqtirish, servitamin ovqatlar iste'mol qilish, fizkultura va sport bilan shug'ullanish lozim.

Shunindek, quloq kasalliklari - quloqning tug'ma nuqsonlari, shikastlanishi va kasalliklari.

Tug'ma nuqsonlariga:

- tashqi eshituv yo'lining bitib ketishi, quloq suprasining yaxshi rivojlanmaganligi, ya'ni kemtik bo'lishi yo butunlay bo'lmasligi (anotiya);
- o'rta quloqda, asosan, nog'ora bo'shlig'idagi suyak to'qimasining o'sib ketishi, eshituv suyakchalari bo'lmasligi yoki ularning o'zaro birikib ketishi;
- ichki quloqda korti organining yo'qligi yoki to'la rivojlanmaganligi kiradi.

Tashqi quloq shikastlari, quloq suprasining lat yeyishi, uning teri osti yoki tog'ay

pardasiga qon quyilishi (gematoma) ko'p uchraydi. Kalla suyagi og'ir jarohatlanganda, odatda, o'rta va ichki quloq shikastlanadi. Haddan ziyod kuchli ovoz yoki uzoq vaqt shovqin ta'sir etishi — akustik travma, shuningdek, yuqori darajadagi bosimning birdan pasayishi (barotravma) oqibatida ichki quloq zararlanadi. Quloq sarig'ining ko'p ajralishi tashqi quloqning keng tarqalgan kasalliklaridan. Quloq supراسi terisida ekzema, saramas, chipqon, zamburug' kasalliklari ham kuzatilishi; o'rta quloq bilan ichki quloqni birlashtirib turadigan oval darcha sohasidagi suyak to'qimasining o'sib ketishi natijasida eshitish xususiyati tobora pasayib borishi mumkin

O'rta quloq otiti quyidagi omillar ta'sirida rivojlanishi mumkin:

- Yuqori nafas yo'llari infeksiyalari (gripp, shamollash)
- Burun va halqum yallig'lanishi (tonzillit, faringit, adenoidlarning kattalashishi)
- Immunitetning pasayishi
- Quloqqa suv kirishi va gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik
- Alergik reaksiyalar

O'rta quloq otitining asosiy simptomlari quyidagilardir:

- Quloq og'rig'i (keskin yoki o'rtacha)
- Isitma (38–39°C gacha)
- Quloqdan yiring yoki suyuqlik chiqishi
- Eshitishning pasayishi
- Bosh og'rig'i, umumiy holsizlik

Kasallikni tashxislash uchun esa quyidagi usullar qo'llaniladi:

- Otokopiya – quloq pardasi va o'rta quloq holatini tekshirish
- Audiometriya – eshitish qobiliyatini baholash
- Timpanometriya – o'rta quloq bosimini aniqlash
- Bakteriologik tekshiruv – infeksiyani keltirib chiqaruvchi mikroblarni aniqlash

Kasallikka tashxis qo'yilgandan so'ngra esa o'rta quloq otitini davolashning asosiy usullariga quydagicha yondashuv qilinadi:

- Dorilar bilan davolash
- Antibiotiklar
- Og'riq qoldiruvchi va yallig'lanishga qarshi dorilar
- Burun tomchilari
- Fizioterapiya
- Issiqlik muolajalari
- Elektroforez
- Ultratovush terapiyasi
- Jarrohlik muolajalari
- Agar yiring yig'ilib qolsa, paratsentez (quloq pardasini kesish) amalga oshiriladi

- Kronik otit holatlarida timpanostomiya (shunt qo'yish) bajarilishi mumkin<sup>1</sup>

Kasallikning oldini olish uchun esa, shamollash va grippning oldini olish, burun nafas yo'llarini doimiy toza saqlash, immunitetni mustahkamlash va suvda cho'milish paytida quloqlarni himoya qilish lozim.

Xulosa qilib aytganda, o'rta quloq otiti jiddiy asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lsa-da, erta tashxis va samarali davolash orqali uni to'liq davolash mumkin. Profilaktik choralar kasallikning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Солдатов И.Б. Лекции по оториноларингологии. М. Медгиз, 1990.
2. Мо'minov A.I. quloq tomoq va burun kasalliklari. Tashkent. 1994.
3. Благовещенская Н.С. Клиническая отоневрология. М. Медицина 1988.
4. Назарова А.А. „Отитлар ва уларнинг даволаш усуллари“, Тошкент, 2022.

---

<sup>1</sup> Назарова А.А. „Отитлар ва уларнинг даволаш усуллари“, Тошкент, 2022.